

## FAMOUS ISLAMIC HISTORIAN - IBN JARIR AT-TABARI

Scientific supervisor: Senior lecturer of Oriental University

**Qo'chqarov Temirbek Baxromjon ugli**

Student of Oriental University

**Muhammadazimov Abdulbosit Abduvoxid ugli**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20348196>

## MASHHUR ISLOM TARIXCHISI - IBN JARIR AT-TABARIY

Ilmiy rahbar: Oriental universiteti katta o'qituvchisi

**Qo'chqarov Temirbek Baxromjon o'g'li**

Oriental universiteti talabasi

**Muhammadazimov Abdulbosit Abduvoxid o'g'li**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada IX asr oxiri - X asr boshlarida yashab ijod qilgan buyuk islom tarixchisi, faqih va hadisshunos olim, mudarris Ibn Jarir at-Tabariyning hayoti va ijodi, ilmiy va axloqiy shaxsiyati, o'ziga xos dunyoqarashi, shu bilan birga ilm rivojiga qo'shgan hissasi batafsil yoritib o'tiladi. Maqolada keltirilgan olim hayotiga oid voqealar va u haqda boshqa ilm kishilarining aytgan so'zlari orqali Tabariyning yanada yaqindan tanish imkoni yuzaga keladi.

Tabariyning "Tarix ar-Rusul val-Muluk" asari dunyo tarixchilari orasida eng mashhurlaridandir. Bu asarni o'rganish orqali boshqa klassik tarixchilar ijodiga yuqori darajada o'z ta'sirini ko'rsatganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa o'zidan keyin yashab ijod qilgan islom tarixchilari asarlarida bu o'z tasdig'ini topadi. Quyida bu asarning qay darajada ahamiyatli ekani, uning yozilish sabablari va uslubi, nimalarni o'z ichiga olishi, ta'siri va maqsadi o'qiguvchiga tushunarli tarzda bayon qilinadi.

Shuningdek, Somoniylar davrida Tabariyning "Tafsir" va "Tarix" asarlari fors tiliga tarjima qilinishi, Movarounnahr ilm-fani, xususan, keyingi davr turkiy tarixshunosligi rivojidadagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** Ibn Jarir at-Tabariy, Somoniylar, Movarounnahr, Tarix, tafsir, hadis, Qur'on, al-Farg'oniy, Somoniy, ibn Hanbal, Shofe'i, Hanafiy, Basra, Kufa, Misir, Bag'dod, Fustat, Bayrut, Damashq, johiliyyat, isroiliyat.

**ANNOTATION:** This article provides a comprehensive overview of the life, scholarly and moral character, unique worldview, and contributions to the development of science of Ibn Jarir al-Tabari, a great Islamic historian, jurist, hadith scholar, and educator who lived and worked during the late 9th and early 10th centuries. Through historical accounts of his life and testimonials from other scholars of his era, the article offers a deeper insight into Tabari's personality.

Tabari's monumental work, *Tarikh*, holds a prominent place in world historiography and profoundly influenced the methodologies of subsequent Islamic historians. This paper outlines the significance, writing motives, stylistic features, structural composition, and overall impact of this masterpiece. Furthermore, the article highlights the importance of the Samanid-era Persian translations of Tabari's *Tafsir* and *Tarikh*, emphasizing their specific relevance and enduring impact on the regional scholarship of Transoxiana and later Turkic historiography.

**Keywords:** Ibn Jarir al-Tabari, Samanid Dynasty, Ma Wara' al-Nahr, Islamic historiography, tafsir, hadith, Qur'an, al-Farghani, Ahmad ibn Hanbal, al-Shafi'i, Hanafi madhhab, Basra, Kufa, Baghdad, Fustat, Damascus, Beirut, Jahiliyyah.



Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir ibn Yazid al-Omuliyy at-Tabariyy al-Bag'dodiy (vaf. 310/923).

Hayoti: U hijriy III asrning mashhur tarixchi va mufasssirlaridan biri bo'lib, islomiy ilmlarda eng ko'p asar yozgan olimlardan hisoblanadi. Hijriy 224 yil oxirida yoki 225 yil boshida (milodiy 839 yil) Tabaristonning markazi bo'lgan Omul shahrida tug'ilgan. Shuning uchun u Omuliy, Tabariy va keyinchalik Bag'dodga ko'chib yashagani sababli Bag'dodiy nisbalari bilan ham tanilgan.

U hech qachon uylanmagan bo'lsa ham, an'anaga ko'ra Abu Ja'far kunyasi bilan mashhur bo'lgan. Tabariy 310 yil 27 Shavvol (923 yil 17 fevral) kuni vafot etgan va ertasi kuni Bag'dodda o'z uyiga dafn qilingan.

Ta'limi: Tabariy boshlang'ich ta'limni tug'ilgan shahri Omulda olgan. U yerda Qur'oni Karimni yod olgan va hadis yozishni boshlagan. O'n ikki yoshida ilm izlab safarga chiqib, besh yil davomida Ray shahrida yashagan. U yerda Ibn Humayd ar-Roziydan ko'plab hadislar olgan va tafsir o'rgangan.

Shuningdek, Musanna ibn Ibrohim al-Omuliyydan hadis hamda ayrim isroiliyat rivoyatlarini, Abu Muqotildan esa hanafiy fiqhini o'rgangan. Ahmad ibn Hammad ad-Dulabiy orqali Ibn Isxoqning mashhur "Kitob al-Mubtada'" (Siyrat Ibn Isxoq) asarini rivoyat qilish ijozatini olgan.

Keyinchalik Ahmad ibn Hanbaldan ilm olish maqsadida Bag'dodga yo'l olgan, ammo u yerga yetib kelishidan oldin Ahmad ibn Hanbalning vafot etganini eshitgan. Shunga qaramay, Bag'dodda bir yilcha yashab, Za'faraniy va Abu Sa'id al-Istahriydan Shofe'iy fiqhini o'rgangan.

So'ng Basraga borib, u yerda Muhammad ibn Bashshar al-Bundor va Ibn al-Musanna kabi muhaddislardan ko'plab hadislar, shuningdek johiliyat davri, siyrat va Xulafoyi roshidin davri haqidagi rivoyatlarni o'rganib, rivoyat qilish ijozatini olgan.

Keyin Kufaga o'tib, u yerda hadis, qiroat, johiliyat davri she'riyati va arab tili adabiyotini o'rgangan. Ikki yil o'tgach Bag'dodga qaytgan. Keyinchalik ilm olishni davom ettirish uchun Misrga yo'l olgan, yo'lda Suriya va dengiz bo'yidagi shaharlarni ham ziyorat qilgan.

Bayrutda bir muddat yashab, Abbos ibn Valid al-Bayrutiydan Shom qiroati asosida Qur'onni hatm qilgan. 253 hijriy (867 milodiy) yilda Fustotga kelgan. Bu yerda mashhur shofe'iy olimlaridan Ismoil ibn Ibrohim al-Muzaniy, Rabi' ibn Sulaymon al-Murodiy va Abu Abdulloh ibn Abdulhakamdan shofe'iy fiqhini o'rgangan.

U hadis, fiqh, tilshunoslik, sarf, nahv va she'riyat bilan shug'ullangan. Bundan tashqari aruz ilmini ham o'rganib, Xalil ibn Ahmadning "Kitob al-Aruz" asarini o'rgangan.

Keyinchalik yana Damashqga borib, hadis va qiroat darslari olgan va yana Fustotga qaytgan. 256 hijriy (870 milodiy) yilda esa Bag'dodga qaytib kelgan va umrining qolgan qismini shu yerda o'tkazgan. Bag'dodda u ko'plab asarlar yozgan va ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Ilmiy shaxsiyati: Tabariy umrining oxirigacha ilmiy asarlar yozish bilan shug'ullangan. Ko'plab shogirdlar yetishtirib, o'z asarlarini ularga yozdirgan. U ilm majlislarida qatnashib, savollarga javoblar va fatvolar bergan.

U qiroat, tafsir, ma'no ( mantiq) ilmi, hadis, fiqh va tarix sohalarida katta obro'ga ega bo'lgan. Biroq Bag'doddagi ayrim Hanbaliylar va Zohiriylar tomonidan qarshiliklarga ham duch kelgan.

Dastlab Shofe'iy mazhabiga mansub bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik o'zining fiqhiiy qarashlarini ishlab chiqib, Jaririy (Tabariyya) fiqh maktabini tashkil qilgan.

Manbalarga ko'ra, Tabariyni tarix yozishga undagan sabablar uning davrida islom olamida yuz bergan siyosiy kurashlar hamda Bag'doddagi Abbosiylar sulolasi ichidagi xalifalik uchun kurashlar bo'lgan.

Axloqiy shaxsiyati: Tabariy juda muloyim tabiatli olim bo'lgan. U juda chiroyli so'zlaydigan, pokiza kiyinadigan, odobli va kamtar inson edi. Talabalariga otadek mehr bilan munosabatda bo'lgan.



U zohid va taqvdor bo‘lib, vaqtini juda tartibli o‘tkazgan. Har kuni ertalab uyida ilmiy ish bilan shug‘ullanar, tushdan keyin esa masjidga borib talabalarga dars berar edi. Kechqurun esa yana ilmiy yozuvlar bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Abu Ja‘far o‘z hayoti haqida gapirganda, bolalik davrini shunday tasvirlagan: “Yetti yoshimda Qur’onni yod oldim. Sakkiz yoshimda odamlarga imomlik qilib namoz o‘qidim. To‘qqiz yoshimda esa hadislarni yozib olishni boshladim. Hatto otam tushida meni Rasulullohning (s.a.v.) huzurlarida, yonimda tosh to‘la xurjun bilan va o‘sha xurjundagi toshlarni otayotganimni ko‘rgan ekan. Tushni ta‘bir qilgan kishi unga: “Ulg‘ayganida dinida sodiq va uni himoya qiladigan inson bo‘ladi”, deb aytgan ekan. Shu sababli otam, men hali bola bo‘lishimga qaramay, ilm talab qilishimda yordam berdi.” (Mu‘jam al-Udaba, XVIII. 49.)

Tush haqiqatga aylandi va ta‘bir to‘g‘ri chiqdi. Ibn Jarir dunyoni go‘yo ilm va fiqh bilan obod qildi. Sunnat uchun kurashdi va bid‘atlarga qarshi turdi. Otasi taqvo sohibi bo‘lib, o‘zini haromdan asraydigan inson edi. Moddiy holati ham yaxshi edi, chunki Tabaristonda keng yerlari bor edi. Abu Ja‘farning zukko shaxsiyati, o‘tkir aqli va ilmga moyilligini tushunib yetgan zahoti, uni ilm o‘rganiladigan maskanlarga yo‘naltirdi. Shundan so‘ng u o‘zi tug‘ilgan Omul shahridan chiqib ketdi. O‘shanda u hali o‘n ikki yoshga ham to‘lmagan edi. Safarda bo‘lganida otasi uning ehtiyojlarini va tirikchiligini o‘z zimmasiga oldi. Qayerga bormasin, otasi unga kerakli mablag‘ni yuborib turardi. Uni davlat arboblari, hukmdor va vazirlarning in‘om-ehsonlariga muhtoj qilib qo‘ymadi. Shunday qilib, uni davlat amallariga qiziqishdan uzoq tutdi va bor e‘tiborini dars berish, rivoyatlar naql qilish hamda asarlar yozishga qaratishiga yordam berdi. Hatto otasi vafot etganidan keyin ham undan qolgan merosdan o‘z ulushini olib turgani sababli, umrining oxirigacha tirikchiligini shu tarzda ta‘minladi.

Tabariy go‘zal dunyoqarashga va ajoyib uslubga ega shaxs edi. Qur‘on tilovat qilmasdan biror kechasini o‘tkazmasdi. Uning qarashlari asosan salafi solihinlarning ko‘pchiligi tutgan yo‘lga muvofiq va Ahli sunna val jamoa yo‘nalishida edi. U yozgan asarlari uchun sultonlardan biror mukofot kutmadi va biror mansabdorga yaqinlashmadi. Xalifa al-Muktafiy undan vaqf masalasida olimlar ittifoq qilgan va ixtiloflardan xoli bo‘lgan bir asar yozishni so‘radi. Tabariy asarni yozib bo‘lgach, xalifaga o‘qib berdi. Xalifaga asar juda ma‘qul keldi va unga qimmatbaho mukofot berilishini buyurdi. Biroq Tabariy buni rad etdi. Unga: “Xalifa huzuriga kirgan kishi yo biror mukofot bilan, yoki biror iltimosi bajarilgan holda chiqishi odatdir”, deyishdi. Shunda u: “Mening talabim shuki, juma kunlari xutba o‘qilishidan oldin tilanchilarning masjidga kirib tilanchilik qilishlari soqchilar tomonidan taqiqlansin”, dedi.

Keyinchalik Tabariy Bag‘dodning Yoqub mintaqasida o‘zi uchun uy qurdirdi. Vaqtini esa ibodat, Qur‘on qiroati va asarlar yozish (tasnif) orasida taqsimladi. O‘z uyida xotirjam, pokiza bir holatda, martabasi va mavqeyi baland, xalifalar va amaldorlar tomonidan qadrlanadigan bir shaxs sifatida umr kechirdi. Hijriy 310-yil, shavvol oyining tugashiga ikki kun qolgan shanba kuni vafot etdi. Yakshanba kuni ertalab o‘z uyida dafn qilindi. Xatib al-Bag‘dodiy aytadi: “Uning janoza marosimida sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydigan darajada ulkan olomon qatnashdi. Oylab, kechayu kunduz ko‘plab insonlar uning qabri ustida janoza namozini (g‘oyibona yoki qayta) o‘qidilar. Din va adabiyot olamidani ko‘plab insonlar uni yod etdilar”. (Tarihu Bog‘dod, II.166.)

U haqda aytilgan fikrlar:

Sem‘oniy shunday yozadi: “Ibn Jarir haqiqiy mutaxassis edi. U zamondoshlaridan hech kim yetmagan darajada keng ilmga ega edi. Qur‘onni yoddan bilardi. Qiroat va tafsirda davrining eng yetuk ustozlaridan edi. Hatto dushmanlari (raqiblari) ham uning hadis ilmida juda katta bilimga ega ekanini tan olgan.”

Aytishlaricha, u 40 yil davomida har kuni qariyb 40 varaqdan yozgan.

Al-Kifti shunday deydi: “Tarihi kesintisiz bir shakilde okumak istiyorsan Ebû Cafer et-Taberi‘nin kitabini tavsiye ederim... (tarixni uzulishlarsiz bir shakilda o‘qishni hohlayotgan bo‘lsang Abu Ja‘far at-Tabariyni o‘qi...)”



Asarlari: Tabariy ko‘plab asarlar yozgan. Ulardan eng mashhurlari:

1. “Jomi‘ al-Bayon an Ta‘vil Ayi al-Qur‘on” – Qur‘on tafsiri bo‘lib, islom olamidagi eng mashhur tafsirlardan biri.
2. “Tarix al-Umam va al-Muluk” – mashhur Tabariy tarixi. Bu asar dunyo tarixiga oid juda muhim manbalardan biridir.
3. Zayl al-Muzayyal
4. Tahzib al-Asor va Tafsil as-Sabit an Rosululloh s.a.v. Min al-Ahbar
5. Tabshir Uli an-Nuha Maolim al-huda (at-Tabshir fi Maolim ad-Din)
6. Sharh as-Sunna
7. Ixtilaf al-Fuqaho (Ihtilof al-Ulamo al-amshar fi Ahkami Sharii al-Islam)
8. Al-Jomi‘ fi al-Qiroat

Siyar va Islom tarixiga qo‘shgan hissasi:

Tabariy islom tarixchiligi rivojida juda katta o‘rin egallaydi. U arab tilida birinchi marta keng qamrovli jahon tarixini yozishga uringan olim hisoblanadi.

Uning mashhur asari “Tarix al-Umam va al-Muluk” yaratilishdan boshlab hijriy 302 yilgacha bo‘lgan voqealarni qamrab oladi.

Asarning eng muhim qismi Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davridan boshlab hijriy IV asr boshigacha bo‘lgan voqealarni bayon qilgan 2-bo‘limdir. Bu bo‘lim Islom tarixchilari uchun juda ham manfaatli bir manba hisoblanadi.

Tarix yozish usuli:

Tabariy o‘zining tarixga oid qarashlarini quyidagicha tushuntiradi:

“Mening ushbu kitobimni ko‘zdan kechirganlar bilsinlar ki, ushbu asarimda jamlangan ma‘lumot va xabarlar, (juda oz qismini mustasno qilganda) aqliy dalillarga, insonlarning fikr va aqllari bilan o‘ylab topgan sabablariga tayanmaydi. Aksincha, ular faqatgina sanadlari (manbalari) bilan roviylarini (naql qiluvchilarini) ko‘rsatganim xabar va rivoyatlarga tayanadi.

Chunki o‘tmishdagilar va keyin kelganlarga oid xabarlar, voqea va hodisalarning har biri - ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan va u davrlarda yashamaganlar uchun - faqatgina o‘sha holatlarni ko‘rgan va eshitganlarning xabar berishi hamda o‘sha xabarlarni naql qilishlari orqaligina ma‘lum bo‘ladi; bular aql va fikr bilan bilib bo‘lmaydigan narsalardir.

Agar o‘tmishdagilarning ba‘zilariga doir biz naql qilgan xabarlarning bir qismini to‘g‘ri va haqiqiy deb topmay, inkor etuvchilar yoki ularni xunuk (asossiz) deb hisoblovchilar topilsa, ular bilsinlar ki, bu xabarlar biz tarafimizdan to‘qilmagan, balki roviylar tomonidan bizga qanday yetkazilgan bo‘lsa, shundayligicha naql qilingan. O‘sha xabarlar bizga qanday yetib kelgan bo‘lsa, biz ham ularni shundayligicha qabul qilib, kitobga kiritmoqdamiz”.

Ya‘ni u tarixni yozishda rivoyat va sanad usulidan foydalangan.

Abu Ja‘far Tarix kitobini qachon yozishni boshlagani aniq ma‘lum bo‘lmasa-da, bu asarni o‘zining tafsir kitobidan keyin yozgani anglashiladi. Al-Xatibning rivoyat qilishicha, Abu Ja‘far at-Tabariy do‘stlaridan: “Qur‘on tafsiri uchun tayyormisizlar?” deb so‘radi. Ular: “Hajmi qancha bo‘ladi?” deb so‘rashdi. Tabariy: “O‘ttiz ming varaq”, deb javob berdi. Ular: “Bunga umr yetmaydi”, deyishdi. Shundan so‘ng u tafsirini uch ming varaqda xulosaladi. Keyin esa ulardan: “Odam alayhissalomdan to bugungi kungacha bo‘lgan dunyo tarixi uchun tayyormisizlar?” deb so‘radi. Ular: “Hajmi qancha bo‘ladi?” deganlarida, tafsir uchun aytgan so‘zini takrorladi. Ular ham ilgari javobni berishdi. Shunda u: “Inna lillah, himmat va azmu qarorlar o‘libdi”, dedi va tarixni ham tafsir hajmidagi kabi qisqa (muktasar) qildi. (Tarix-u Bog‘dod, II. 163.)

Yoqut al-Hamaviy Abu Bakr ibn Balvayhdan naql qilib, shunday deganini rivoyat qiladi: Abu Bakr Muhammad ibn Is‘hoq (Ibn Xuzayma) menga: “Eshitishimcha, Muhammad ibn Jarirdan Tafsir kitobini yozib olibsan”, dedi. Men: “Ha, tafsirni undan yozib oldik”, dedim. U: “Qaysi yillarda?” deb so‘radi. Men: “283-yildan 296-yilgacha”, deb javob berdim. (Mu‘jam al-Udaba, XVIII.42.) Shunga ko‘ra, u Tarix asarini hijriy 290-yildan keyin yozishni boshlagan.



Tarix kitobi yakunlangan vaqtga kelsak, Yoqutning bayon qilishicha, Tabariy bu asarni tugatib, kotiblarga yozdirib bo'lishi hijriy 303-yil rabiul-avval oyining tugashiga uch kun qolgan chorshanba kuniga to'g'ri keladi. Kitobning o'zi esa hijriy 302-yilning oxirida yakunlangan. (Mu'jam al-Udaba XVIII. 44.)

Ta'siri: Keyingi tarixchilar ko'pincha Tabariy asarini asosiy manba sifatida ishlatganlar. Uning Tarix kitobi juda mashhur bo'lib ketgan va unga ko'plab davomiy asarlar (zayllar) yozilgan.

Tarix ur-Rusul val-Muluk yoki Tarix ul-Umam val-Muluk nomi bilan mashhur bo'lgan tarix kitobi arablar yozgan asarlar orasida eng mukammalidir. U ushbu kitobni puxta rejalashtirilgan uslubda tayyorlagan, hamda umumiy tadqiq va tekshiruv yo'li bilan shakllantirgan. Undagi rivoyatlar to'g'rilik, omonatdorlik va e'tibor jihatidan eng yuqori darajadadir. Tabariy o'zidan oldin o'tgan Ya'qubiy, Balozuriy, Voqidiy va Ibn Sa'd kabi tarixchilarning ishlarini yakuniga yetkazgan, hamda o'zidan keyin kelgan Mas'udiy, Ibn Miskavayh, Ibn ul-Asir va Ibn Xaldun kabi tarixchilar uchun yo'l ochib bergan.

Tarjimaga kelsak, ilk tarjima Abu Ali Muhammad ibn Abdulloh al-Alkami tarafidan hijriy 4-asrning ikkinchi yarmida, Amir Abu Solih Mansur ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Somon as-Somoniyning amri bilan Forschaga o'girildi. Tarjimada sanadlarni zikr qilmasdan, rivoyatlarni naql qilish orqali qisqartmalar qiladi va ba'zi tasarruflarni amalga oshiradi. (Kashf uz-Zunun, s.298.)

Tabariy vafotidan qariyb 40 yil o'tgach, hijriy 352 (milodiy 963) yilda amir Mansur ibn Nuh I o'zining vaziri Abu Ali Bal'amiyga ushbu ulkan tarixiy asarni fors tiliga o'girishni buyuradi.

Vazir Bal'amiyning xizmati: Tarjima shunchaki so'zma-so'z o'girish emas, balki asarni muxtasar (qisqartirilgan) va qayta ishlangan holatda taqdim etish edi. Bal'amiy asarni qisqartirish bilan birga, unga Eron tarixiga oid yangi ma'lumotlarni ham qo'shgan. Shu sababli bu tarjima fanda "Tarix-i Bal'amiy" nomi bilan ham mashhur.

Maqsadi: Bu tarjima islom olamida arab tilida bo'lmagan xalqlarga din va tarixni o'z ona tillarida tushuntirish yo'lidagi ilk katta qadamlardan biri edi. Mansur ibn Nuh shuningdek, Tabariyning "Tafsiri"ni ham bir guruh Movarounnahr ulamolari yordamida fors tiliga tarjima qildirtirgan.

Tabarining shogirdlari, vafotidan so'ng asarni davomini yozganliklari ma'lum. Ularning aksari e'tiborga olinmagan va tanqidlarga uchragan. Shogirdlarida Abdulloh ibn Ahmad ibn Ja'far al-Farg'oni at-Turki ham asarning davomini yozganlardan biri hisoblanadi. U shaxs ko'pincha "al-Farg'oniy" nisbasi (ismi) tufayli astronom Ahmad al-Farg'oniy bilan adashtiriladi, ammo ular mutlaqo boshqa-boshqa odamlardir. Quyida ularning asosiy farqlari:

1. Astronom Ahmad al-Farg'oniy (Alfraganus) Tarixdagi o'rni: Buyuk astronom, matematik va geograf. Mashhur "Donishmandlar uyi" (Bayt al-Hikma) olimi. Yashagan davri: Taxminan 798-865-yillar (Xalifa al-Ma'mun va al-Mutavakkil davri). Mashhurligi: Nil daryosidagi "Nilomer" (suv sathini o'lchagich) qurilmasini yaratgan va "Astronomiya asoslari" asari bilan Yevropada "Alfraganus" nomi bilan tanilgan. Tabariy bilan bog'liqligi: U Tabariydan oldin yashagan, yoki uning yoshlik davriga to'g'ri kelgan. U Tabariyning shogirdi bo'lishi mumkin emas, chunki Tabariy tug'ilganda (839-yil) Farg'oniy allaqachon mashhur olim edi.

2. Tabariyning shogirdi Abdulloh al-Farg'oniy tarixchi va faqih. U Tabariyning eng yaqin shogirdlaridan biri va uning ishlarini davom ettirgan olim. To'liq ismi: Abu Abdulla Muhammad (yoki Abdulloh) ibn Ahmad ibn Ja'far al-Farg'oniy. U Tabariyning "Tarixi Tabariy" asariga "as-Sila" (Ilova/Davom) deb nomlangan qo'shimcha yozgan. Bu qo'shimchada u ustozini to'xtagan joydan keyingi voqealarni bayon qilgan. X asrda yashagan (vafoti taxminan 972-yil).



a) Tabarining talabalaridan Abdulloh ibn Ahmad ibn Jafar al-Fargʻoni at-Turki (oʻlm. 362/972)

b) Arib ibn Saʼd al-Kurtubi (oʻlm. 979)

c) Sabit ibn Sinan (oʻl. 973)

d) Muhammad ibn Abdulmalik al-Hamadoni (oʻlm. 1157)

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

[1]- abduhu.0323@gmail.com

[2]- Sabri Hizmetli, İslam Tarihçiliği Üzerine, s. 132. (Asar MEB tomonidan sharq klassiklari nomi ostida “Milletler ve Hükümdarlar Tarihi” sifatida nashr etilgandır.)

[3]- Mustafa Fayda, DİA, c. 39, 314-315; Hasan Kurt, Taberî'nin Hayatı ve Tarihçiliği (yüksek lisans tezi, 1991), Ondokuz Mayıs Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.

[4]- Mustafa Fayda, DİA, c. 39, s.315.

[5]- Age, s.315.

[6]- Age, s.315.

[7]- Age, s. 315.

[8]- Taberî, Milletler ve Hükümdarlar Tarihi, (Çev. Zâkir Kadiri Ugan, Ahmet Temir) c. I s.

2.

[9]- Mustafa Fayda, DİA, c. 39, s. 315-316.

[10]- Şemsettin Günaltay, İslam Tarihinin Kaynakları-Tarih ve Müverrihler, s. 35.

[11]- Bkz.İsmail Cerrahoğlu, “Muhammed İbn Cerir et-Taberî ve Tefsiri”, AÜİFD, XVI (1968), s. 79-101; Halis Albayrak, “Taberî'nin Kıraatları Değerlendirme ve Tercih Yöntemi”, AÜİFD, XLII (2001), s. 97-130; Sıtkı Güllü, “Taberî'nin, Tefsirindeki Kıraat Değerlendirmeleri”, İÜ İlahiyat Fakültesi Dergisi, sy. 9, İstanbul 2004, s. 65-85.

[12]- Mustafa Fayda, DİA, c. 39, s. 317.

[13]- Sabri Hizmetli, İslam Tarihçiliği Üzerine, s. 134.

[14]- Şemsettin Günaltay, Age, s. 41-42.

[15]- Taberî, Age, c. I s. 1.

[16]- Şemsettin Günaltay, Age, s. 41.

[17]- Taberî, Age, c. I s. 1-2.

[18]- Şemsettin Günaltay, Age, s. 43.

[19]- Taberî, Age, c. I s. 7-8.

[20]- Age, s. 56-57.

